

ZULFIYA – AYOL QALBI KUYCHISI

Mardiyeva M.Sh

SamDCHTI o'qituvchisi

X.B.Jumayeva

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada Zulfiya ijodining asosiy mavzularidan biri bo'lgan – ayol qalbi va uning nozik kechinmalari yoritiladi. Shoira o'z ijodida ayollarning orzu-intilishlari, muhabbati, sadoqati hamda irodasini tasvirlab, ularning jamiyatdagi o'rnini ulug'laydi. Uning she'rlari ayol ruhiyatining eng nozik jihatlarini aks ettirgan bo'lib, adabiyotimizda ayol obrazining yorqin ifodasi sifatida qadrlanadi. Quyidagi maqolada shoira asarlaridagi ayollarga xos ichki kechinmalar va ularning hayotiy kurashi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. *Zulfiya, ayol qalbi, she'riyat, sadoqat, muhabbat, iroda.*

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan [1]. Shoira xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O'zbekiston xalq shoiri, xalqaro “Nilufar”, Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasidir [2, 79]. Xalq orasida “Oydinda”, “Sensiz”, “Yurak”, “Falak”, “Bahor keldi seni so'roqlab”, “O'g'irlamang qalamim bir kun”, “Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz”, “O'g'lim, sira bo'lmaydi urush”, “Mushoira” kabi she'rlari mashhur [3, 9].

Ayol qalbi - eng nozik xilqat. Zulfiyaxonim she'rlarida ayollar dunyosi alohida o'rin tutadi. O'zi ham iste'dodi, mehnati, rostgo'yligi, bilan ijodda, hayotda shuhrat topdi. “Bir mavzuda cheklanib qolgim kelmaydi. Lekin dugonalarim, tengdosh – zamondoshlarim hayoti, o'zbek ayolining hozirgi qiyofasi o'zining shoirona ifodasini talab etib, meni hamisha hayajonga soladi”, deya yozadi esdaliklarining birida Zulfiya [4].

Necha ajdod kechgan bog'dan yo'l qoldi,

U yo'llarda Sizdan mendan yo'qdir iz!

Siz Menu, Meni Onalik oldi,

Ayol zoti ketmas hayotdan izziz...

Ushbu she'r misralarida ayol zotining jamiyat va hayotdagi beqiyos o'rni madh etilmoqda. Ushbu she'riy misralar quyidagicha tahlil qilinadi:

Necha ajdod kechgan bog'dan yo'l qoldi – bu misrada avlodlar ketidan avlodlar kelayotganligi, tarixiy davomiylik aks ettirilgan. Insoniyat yashab o'tgan makonlar va hayot yo'llari haqida gap ketmoqda.

U yo'llarda Sizdan mendan yo'qdir iz! – bu misra bilan shoir hayot yo'llari davomiyligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, shaxsiy izlar yo'qligi orqali insonlarning vaqt o'tishi bilan unutilishi mumkinligini bildiradi.

Siz Menu, Meni Onalik oldi – ayol zotining buyukligi ifodalanmoqda. Onalik sharafiga orqali insoniyat davom etadi, shuning uchun ayol jamiyatda o'chmas iz qoldiradi.

Ayol zoti ketmas hayotdan izziz... – ushbu misrada asosiy g'oya mujassam, ya'ni ayollar hayotdan hech qachon izziz ketmaydi! Ular farzand tarbiyalaydi, jamiyat rivojiga hissa qo'shadi, insoniyatni davom ettiradi.

She'r ayollar sha'ni va onalik buyukligini madh qiladi. Ularning insoniyat tarixidagi o'chmas o'rnini ko'rsatadi. Shoira ayollarni ezgulik, hayot va abadiylik timsoli sifatida tasvirlaydi [5, 78].

Zulfiyaning navbatdagi she'riga e'tibor beradigan bo'lsak, umri har qancha qiyinchilik, judolik va ayriliqlarga qaramay, yaxshi insonlar orasida kechganini, shukronalik hislarini qalamga olganiga duch kelamiz:

Baxtim bor: ajoyib kishilar aro,
Tug'ilib, gurkirab... keksayar umrim,
O'shalar she'rimga baxsh etgan sado,
Hayotim yo'lini yoritgan nurim.
Biri yuzlarimga baxsh etar kulgu,
Biri qonlarimga solar hayajon.
Biri olg'a chorlar bo'lib oq orzu,
Biri der: hayotsan, yur orzu tomon.

Hayotning eng katta boyligi – yaxshi insonlar bilan birga yashash, ularning mehrini his qilish va ular bilan orzu-maqсадlar sari intilishdir. Inson yolg'iz emas, uning yo'lini yorituvchi, unga quvonch, hayajon, ilhom va kuch bag'ishlovchi insonlar bor – bu narsalarga ega bo'lish esa haqiqiy baxtdir [2, 90].

Zulfiya – o'zbek adabiyotida ayol qalbining dardlari, orzu-umidlari va yuksak fazilatlarini kuylagan zabardast shoiradir. Uning ijodi ayolning nafaqat go'zalligi va latofatini, balki uning kuch-qudrati, sabr-qanoati va fidoyiligini ham ulug'laydi. Zulfiya ayolning jamiyatdagi o'rnini, uning mehribon ona, sadoqatli yor, fidoyi farzand va mehnatkash inson sifatidagi siymosini o'zining samimiy va ta'sirchan satrlari bilan aks ettirgan. Shoiraning she'rlari ayollar hayotining turli qirralarini yoritib, ularning baxti va armonlarini, mehr-muhabbati va fidoyiligini chuqur tasvirlaydi. Uning ijodi orqali ayollar o'zining bebaho ekanini his qiladi, kuch-qudrat topadi va kelajakka ishonch bilan qaraydi. Zulfiya asarlarida ona Vatan, muhabbat, sadoqat, fidoyilik kabi ulug' mavzular o'z aksini topgan bo'lib, ular ayol qalbi va hayoti bilan chambarchas bog'langan. Uning she'rlari nafaqat o'zbek adabiyotining, balki butun milliy madaniyatimizning bebaho durdonalaridan biridir. Zulfiya ayollar sha'nini ulug'lovchi, ularning yuragidan otilgan hislarni nazmga soluvchi ijodkordir. Uning ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, har bir o'quvchiga kuch bag'ishlaydi, insoniy fazilatlarni ulug'laydi va go'zallikni tarannum etadi. Shuning uchun ham u haqli ravishda "Ayol qalbi kuychisi" degan yuksak e'tirofga loyiqdi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Manba: <https://mmp.tma.uz/2020/07/>
2. S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. 6-sinf adabiyot. II qism, darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017, 157 b.
3. Manba: <https://uznelrps.natlib.uz:444/>
4. Manba: <https://xs.uz/uz/post/bakhtim-shul-ozbekning-zulfiyasiman>
5. Zulfiya. Bahor keldi seni so'roqlab. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016, 192 b.
6. Narzikulova, R. (2022). Peculiarities of 20th century english literature and main characteristics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 247-250.
7. Narzikulova, R. A. (2021). PHONETIC ERRORS IN LEARNING ENGLISH IN NON-LINGUISTIC UNIVERSITIES. Theoretical & Applied Science, (5), 63-66.
8. Narzikulova, R. (2021). THE WAY OF LIFE OF THE JAPANESE ENGLISH WRITER KAZUO ISHIGURO. Academic research in educational sciences, 2(4), 276-282.
9. NARZIKULOVA, R. Phonetic Stylistic Methods and Methodological Application of Phraseology in English and Uzbek. JournalNX, 7(02), 327-329.
10. Narzikulova, R. (2022). Scrutinizing materials in organizing class for high school students. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(3), 31-33.